



Analysis of international research on the issue of developing creative competence in educators

Dilfuzakhon YULDOSHEVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

lifelong learning,
continuous education,
"4K" competencies,
innovative skills,
critical thinking,
creativity,
communicativeness,
collaboration,
creative personality.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of 21st-century skills and competencies, 4K competencies, issues related to their formation and assessment, methods for developing an individual's creative competence, and challenges in fostering creative competence among future educators within the educational system.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp84-90>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlar tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

umr davomida ta'lim olish,
hayot davomida o'rganish,
"4K" kompetensiyalari,
innovatsion ko'nikmalar,
tanqidiy fikrlash,
kreativlik,
kommunikativlik,
kollaboratsiya,
kreativ shaxs.

Ushbu maqolada XXI asr ko'nikma va kompetensiyalari, 4K kompetensiyalari, ularni shakllantirish va baholash masalalari, shaxsning kreativ kompetentligini rivojlantirish yo'llari, ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish muammolarining qiyosiy tahlili keltirib o'tilgan.

¹ PhD, Fergana State University.

Анализ зарубежных исследований по проблеме развития креативной компетентности у педагогов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

обучение на протяжении всей жизни, непрерывное образование, компетенции «4К», инновационные навыки, критическое мышление, креативность, коммуникабельность, коллаборация, креативная личность.

В данной статье представлен сравнительный анализ навыков и компетенций XXI века, компетенций 4К, вопросов их формирования и оценки, путей развития креативной компетентности личности, а также проблем развития креативной компетентности у будущих педагогов в системе образования.

KIRISH

Jahonda fan va ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda "tajriba asosida ta'lim olish" (Experimental learning) g'oyasi jahon hamjamiyati axborot-ta'lim muhitida ustuvorligi jihatidan e'tirof etilmoqda. Bu holat oliy ta'lim muassasalarida bilim olayotgan talabalarda fanlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni, shuning bilan birga ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimiz hayotida kechayotgan ijtimoiy-madaniy ishlab chiqarish amaliyoti uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi, uzluksiz ta'lim tizimini "umr davomida ta'lim olish" (Lifelong learning) konsepsiyasi asosida tashkil etishni talab etmoqda. Fan va texnologiya natijalarining ishlab chiqarish amaliyotga joriy etilishi, iste'molchilar xohish-istaklarining ortishi, ta'limning axborotlashuvi, insoniyat hayot sifatining ortib borishi soha mutaxassislaridan kasbiy faoliyatiga kreativ tarzda yondashishni talab etmoqda.

Lissabon sammiti natijalari bilimga asoslangan iqtisod va jamiyatga muvaffaqiyatli o'tishni uzluksiz ta'lim jarayoni bilan birga olib borish va hayot davomida o'rganish (lifelong learning) kerakligini tasdiqlaydi. Sammit memorandumida uzluksiz ta'limning oltita asosiy tamoyillari belgilangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor kattalarni o'qitishga qaratiladi. Kattalarni o'qitish uchun bir qancha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ularning asosiylari quyidagilar:

- kattalarni o'qitishning Gamburg deklaratsiyasi (The Hamburg Declaration on Adult Learning);

- YUNESKO deklaratsiyasi;

- (the Dakar framework for Action: Education for All: Meeting our Collective Commitments), 2000-y.

- the Right to Education – Ta'lim huquqi, doklad YUNESKO, 2000 y.

- hayot davomida o'rganish bo'yicha memorandum (Memorandum on Lifelong Learning) – Yevropa komissiyasi deklaratsiyasi, 2000-y.

- lifelong learning in Europe: Moving towards EFA Goals and CONFINTA V Agenda – Yevropada hayot davomida ta'lim olish (oxirgi hujjat 2002-yilda Sofiyada bo'lib o'tgan konferensiyada qabul qilingan).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XXI asrning kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan xalqaro modellar ichida “4K” kompetensiyalari butun dunyoda qo'llanilayotgan modellardan biridir. Haqiqiy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga qo'shimcha ravishda, XXI asr ko'nikma va kompetensiyalari doirasida taklif qilingan, unda “innovatsion ko'nikmalar” – tanqidiy fikrlash, muammoli masalalarni hal qilish, kreativlik va innovatsion qobiliyat, kommunikativlik va kolloboratsiya, shu bilan birga “hayot” yoki “karyera” ko'nikmalarining umumiy to'plamini tashkil etadi. Jahon iqtisodiy forumida “Ta'limga yangicha qarash” ma'ruzasida [1] yangi model (1-jadval) taqdim etildi.

1-jadval

TA'LIMIY NATIJALAR	KOMPETENSIYALAR	XARAKTER SIFATI
Asosiy savodxonlik turlari		
Til bilish savodxonligi	Tanqidiy fikrlash	Qiziqish
Raqamli savodxonlik	Kreativlik	Tashabbuskorlik
Tabiiy-ilmiy savodxonlik	Kommunikativlik	Qat'iyatlilik
AKT savodxonligi	Hamkorlik	Moslashuvchanlik
Iqtisodiy savodxonlik		Liderlik
Fuqarolik va madaniy savodxonlik		Ijtimoiy va madaniy xabardorlik
Kasbiy savodxonlik	Umumiy analiz qilish va axborotni ajratib olish ko'nikmasi Nostandart vaziyatlarda kasbiy vazifalarni yechish, hamkorlik qilish va kasbiy “har bir kasb uchun”	Professional shaxs: mas'uliyatlilik, uzluksiz kasbiy rivojlanishga yo'nalganlik va h.k.z.

Modelning markaziy qismini “4K” kompetensiyalari egallaydi: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kooperatsiya (o'zaro hamkorlik). Ushbu kompetensiyalarni qanday shakllantirishni tushunish uchun ularning har biri nimani o'z ichiga olganligini aniqlash kerak.

Har bir inson, jamoalar va umuman jamiyat zamonaviy hayotining tobora murakkablashib borishi bizning muammolarimiz yechimlari murakkab va ko'p qirrali bo'lishi kerakligini anglatadi. Tenglik va erkinlik, individuallik va jamiyat, an'analar va innovatsiyalar, avtokratiya va demokratiya o'rtasidagi muvozanatni izlashda yanada yaxlit yechimlarni topishni o'rganishga olib keladi.

“4K” kompetensiyalarini shakllantirish va baholash masalalariga ijodiy yondashish kerak, ammo oqibatlar haqida unutmaslik, foyda va xatarlarni baholash va eng muhimi, ish natijalari uchun javobgar bo'lish kerak.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda ishlatiladigan vazifalarning asosiy xususiyatlari:

- ushbu o'quv topshirig'i berilgan kasbiy muammo doirasida qisqacha tavsiflangan vaziyatni rivojlantirishga imkon beradi;
- o'quv topshirig'i individual yoki juftlik ishi uchun kichik vazifalarni ajratish mumkin bo'lgan guruhda ishlashni o'z ichiga oladi;
- o'quv topshirig'i mustaqil ochiq manbalardan kerakli ma'lumotlarni qidirish vazifasini qamrab oladi (masalan, veb-saytlardan);

– o‘quv vazifasi boshqa fanlardan, professional modullardan ma’lumotlarni topish va ulardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin [1].

Bunday vazifalar kasbiy yo‘nalishdagi o‘quv vaziyatining mohiyatini mustaqil ravishda o‘rganishga imkon beradi. Bu mustaqil ishlash imkoniyatini, shu jumladan turli xil ta’lim darajalariga ega talabalarni hamkorlikda ishlashlarini ta’minlaydi.

“4K” kompetensiyalarini shakllantirish talablariga ko‘ra, ijodiy topshiriq va ijodiy mashg‘ulotning xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- talabalarda motivatsiyani shakllantirish (muammoli savol berish, ish beruvchining talabiga ko‘ra o‘z kasbiy rivojlanishi istiqbolini ko‘rsatish);
- chaqiruvni yaratish (juda murakkab vazifalarni berish);
- talabalar orasida tanlovning o‘zgaruvchanligi;
- topshiriqda berilgan yechim algoritmining yo‘qligi;
- topshiriq bir nechta to‘g‘ri yechimlarga ega bo‘lishi;
- kasbiy faoliyatning turli sohalariga oid integratsiya;
- topshiriqni bajarish davomida, albatta, muhokama qilish;
- guruh ish shaklidan foydalanish;
- guruh tomonidan o‘z mahsulotini ishlab chiqish [1].

Ushbu turdagi o‘quv mashg‘ulotlari AKTdan foydalanishni o‘z ichiga olgan zamonaviy aralash ta’lim texnologiyalariga tayanishi mumkin. Mashg‘ulot paytida turli xil kompyuter texnologiyalaridan, mustaqil ish doirasida vazifalarni bajarishda, shuningdek talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa uchun foydalanish mumkin. Raqamli qurilmalardan foydalanish nafaqat tezkor ma’lumot almashish uchun, balki ta’limni individuallashtirish, guruhda ishlash uchun ham mos keladi. Shunday qilib, mobil ta’lim har qanday variantda ma’lumot olish uchun har qanday raqamli vositalardan (kompyuter, elektron kitob va boshqalar) foydalanishni taklif qiladi va qo‘shma ta’limni axborot bilan qo‘llab-quvvatlash internetdan foydalangan holda muammolarni hal qilish uchun guruhli qidiruv vazifalari mavjudligini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ijodiy o‘quv vaziyatlariga Flipped learning strategiyasi yaxshi mos keladi.

“4K” kompetensiyalarini rivojlantirishda talabalar olimpiadalari, tanlovlar, jumladan, talabalar uyushmalarining norasmiy aloqasi, jamoat yoshlar tashkilotlari kabi mashg‘ulotdan tashqari o‘quv ishlari ham katta imkoniyatga ega. Ushbu ta’lim dasturlari didaktik komponentning tarkibiy elementlari sifatida muassasa auditoriyalari va laboratoriyalarida, shuningdek zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan ko‘p funksiyali amaliy malaka markazi va ixtisoslashtirilgan markazlarning laboratoriyalari va ustaxonalarida, ish beruvchi korxonalar bazasida amalga oshirilishi kerak. Ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati “4K”ni rivojlantirish uchun ta’lim muhitini boyitadi [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dunyodagi ko‘p mamlakatlar (AQSh, Angliya, Polsha, Xitoy va boshqalar) olimlari ta’lim faoliyati sharoitida shaxsning kreativ kompetentligini rivojlantirish yo‘llarini o‘rganmoqdalar.

Oliy ta’lim dasturlari doirasida fundamental bilimlar berishdan tashqari talabalarining kreativ, innovatsion salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratadigan dasturlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday dasturlar Renselayer politexnika universiteti, Stenford universiteti (AQSh), Gonkong universiteti (Xitoy), Varshava universiteti (Polsha) kabi xorijiy universitetlarda to‘liq amalga oshirilmoqda.

Jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlangan kreativlikni rivojlantirish muammosi haligacha joylardagi o'qituvchilar uchun muhim vazifaga aylangani yo'q [2]. Yu. Pluser va R. Begetto kreativlikni rivojlantirish muammosi haqida uni o'qituvchilar va maktab psixologlari tomonidan jiddiy qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi bir qancha miqlarni shakllantirish orqali zamonaviy pedagogikaga xos vaziyatni asoslashga harakat qildilar [3].

Tadqiqotchi T.Lyubartning qayd etishicha, "kreativlik" tushunchasi ijod jarayonida olingan yangi natijalar bilan tajriba o'tkazishni taqozo etadi. Uning fikricha, "kreativlik – bu mavzu doirasida yangi natijalar yaratish qobiliyatidir. Bu natijalar allaqachon mavjud bo'lgan narsalarni takrorlamasligi jihatidan yangi bo'lishi kerak" [4].

D. Leonard va V. Slep bildirgan ta'rifga binoan, "kreativlik foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalarni shakllantirish va ifodalash jarayoni bo'lib, kreativlik iste'dod emas, shuning uchun uni maqsadga yo'naltirilgan jarayon deb hisoblash mumkin va uni tashkil etish uchun individual qobiliyat, tajriba va malakani maksimal darajada oshirish imkonini beruvchi yondashuv zarur bo'ladi" [5].

O'z navbatida, J.Gelade kreativlikning ko'p qirrali xususiyatini qayd etib, unga madaniyat yoki til kabi ko'plab ijtimoiy omillar ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlagan [6].

M. Chiksentmihayi shuni nazarda tutganki, kreativlikka faqatgina aqliy jarayonning shakli sifatida qaramasdan, balki ijtimoiy yoki madaniy hodisaning shakli sifatida ham qarash mumkinligini yozadi [7].

X. Li va X. Kim madaniyat kreativlik darajasiga ham, uni o'rganish va o'lchash usullariga ham ta'sir qilishi mumkin, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, ular kreativ xulq-atvor individual omillarga ham bog'liqligini ta'kidlaydi [8].

Kreativlik sohasida qiziqarli tadqiqot natijalari ikki guruh osiyolik olimlar tomonidan olingan. Ular amerikalik va osiyolik talabalarining kreativlikni idrok etishlarida madaniyatlararo farqlarni aniqladilar. Masalan, "kreativlikni o'rganayotganda amerikalik talabalar moslashuvchanlik (turli g'oyalarni o'zgartirish, ular bilan moslashuvchan ishlash qobiliyati) bo'yicha o'zlarining ustunligini ko'rsatsa, osiyolik talabalar g'oyalarni takomillashtirish va murakkablashtirishda ustunlik qiladilar" [9].

M. Kirton kreativlikni qarorlar qabul qilishdagi adaptiv afzalliklardan tortib, muammolarni hal qilishning innovatsion strategiyalarigacha bo'lgan uslublar uzluksizligi sifatida ko'rish mumkinligini taxmin qiladi. Bu ikki yondashuvning farqi shundaki, adapterning vazifasi takomillashtirish, innovatorniki esa ishni boshqacha yo'sinda qilishdir. Shuning uchun, birinchisi mavjud paradigma doirasida g'oyalarni ishlab chiqaradi, innovatorlar esa o'rnatilgan paradigmalarga qarshi chiqadigan g'oyalarga intiladi [10].

Kreativlikni rivojlantirish haqida gapirganda, tadqiqotchilar ko'pincha shaxsning kreativ salohiyatini ochishga qaratilgan yondosh muammoga murojaat qilishadi. Salohiyat deganda "ma'lum sharoitlarda o'zini namoyon qila oladigan yashirin imkoniyat, qobiliyat" tushuniladi. Bu holda "salohiyat" tushunchasi mavjud va safarbar qilinishi mumkin bo'lgan, muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish yo'lida foydalaniladigan vosita, usul, zaxira, manba, imkoniyat va sharoit sifatida ta'riflangan [11].

XULOSA

Yuqori keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kreativlik – bu muammoni hal etish, innovatsion, avval mavjud bo'lmagan eng maqbul usullarda maqsadga erishish yo'lida qo'llanilishi va yo'naltirilishi mumkin bo'lgan g'oyalar va

imkoniyatlarning manbai ekanligini anglash mumkin. **Kreativ shaxs** – bu o'zi uchun doimo yangi rivojlanish yo'nalishlarini qidiradigan, yangi kuzatishlar olib boradigan, yangi taxminlarni ilgari suradigan va yangi bilimlarni taklif qiladigan odam.

Polshadagi o'qituvchilar va psixologlar kreativlikni rivojlantirish bo'yicha o'z tajribalarini to'plagan. Bu yerda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar faqat maktabdan tashqari va faqat nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda ko'plab tajribalar amalga oshirilib, ular doirasida ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi mashg'ulotlarni tadbqiq etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Shu sababli oliy o'quv yurtlari (masalan, Varshava kasb-hunar ta'limi akademiyasi) professor-o'qituvchilarni individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda faol ishtirok etish uchun maxsus tayyorlay boshlagan. Pedagoglarni tayyorlash dasturi kreativlikni rag'batlantirish va ularning samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish, kreativ shaxslarni qabul qilish, kreativ tasavvur va individuallikni rivojlantirish, kreativ muhitni yaratish, intuitsiya, kreativ salohiyatning har xil turlari va muvaffaqiyat tuyg'usini rivojlantirish kabi muammolarni hal etishga qaratilgan [12].

Buyuk Britaniya vakillari (Pilar Matud, M. Rodrigues, C. Grande, J. Gender) ham kreativlikni rivojlantirish muammosiga alohida e'tibor qaratadi [13]. Ular jismoniy tarbiya fani o'quv dasturiga kiritilgan kreativ raqs orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usulidan foydalanishgan. Bu g'oya tarafdorlari kreativ raqsni nafaqat harakatchanlik yoki estetik hissiyotlarni rivojlantirish salohiyatining mavjudligi, balki o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini yaxshilash vositasi va yaxlit o'quv dasturining noyob tarkibiy qismi sifatida ham ko'rishadi. O'qituvchilar bunday raqsning o'quvchilar kreativ faolligiga ta'sirining ijobiy dinamikasini qayd etadilar. Psixologik va pedagogik xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili bo'lajak pedagog kreativ shaxsiyatining quyidagi xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- *mustaqillik va divergent xulq-atvorga moyillik* – kreativ shaxslar uchun ko'pincha umume'tirof qilinganlarga to'g'ri kelmaydigan o'z prinsiplari va xulq-atvor standartlari;

- *fikrlashning moslashuvchanligi va yangi narsalarga ochiqlik* muhim ahamiyatga ega. Stereotiplar kreativ fikrlashga xalaqit beradi. Narsalarning odatiy ko'rinishidan voz kechish qobiliyati, muammoni nostandart nuqtayi nazardan ko'rib chiqish istagi innovatsion yechimlarni topishning to'g'ri yo'lidir;

- *o'zini namoyon qilishga motivatsiya, o'zini namoyon qilish istagi va kreativlikka bo'lgan qobiliyat* – dizayndagi kreativlik o'zini namoyon qilmaslik va muammoni hal qilishda individual qarashsiz mavjud bo'la olmaydi;

- *muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qilish qobiliyati* – shaxs tomonidan yaratilgan mahsulot yoki hal qilinayotgan yechimning estetik jihatlari, birinchi navbatda, foydaliligi bilan muhim hisoblanadi [14].

Xullas jahon ta'lim tizimida kreativ kompetentlikni rivojlantirish muammolarini qiyosiy tahlil qilish bir qator asosiy yo'nalishlarni ajratish imkonini berdi:

- zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim sharti sifatida kreativlikni rivojlantirish muammosini davlat darajasida e'tirof etish;

- kreativlikni rivojlantirish muammosining madaniy va ijtimoiy shartlari mavjudligini anglab yetish;

- shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy usul va shakllarni ishlab chiqish;

– kreativlik jarayonining to'la huquqli ishtirokchisi sifatida o'qituvchining malakali kasbiy pozitsiyasini shakllantirish.

Yuqoridagi xulosadan anglanadiki, bo'lajak pedagoglarni kreativlik kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пинская М. А., Михайлова А. М. Компетенции ««4К»»: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации / – М.: Корпорация «Российский учебник», 2019. – 76 с.
2. Козлова, Н. В. Личностно-профессиональное становление: психолого-акмеологический подход / Н.В. Козлова. – Томск: Изд-во ТПУ, 2007. – 201 с.
3. Plucker J., Beghetto R. Why creativity is domain general, why it looks domain specific, and why the distinction does not matter // Who is creative? Washington, D.C.: American Psychological Association, 2010. P. 153-167.
4. Lubart T. Creativity across cultures // Handbook of creativity. N.Y.: Cambridge University Press, 2001. P. 339-350.
5. Leonard D., Swap W. Forstering creativity: expert solutions to everyday challenge. Harvard University Press, 2010. P. 42—46.
6. Gelade G.A. Creativity style, personality, and artistic endeavor // Genetic, Social, and General Psychology Monograph. 2002. № 128. P. 213-234.
7. Csikszentmihalyi M. Implications of a systems perspective for the study of creativity // Handbook of creativity. N.Y. : Cambridge University Press, 2001.-P. 313-335.
8. Lee H., Kim H.K. Relationships Between Bilingualism and Adaptive Creative Style, Innovative Creative Style, and Creative Strengths among Korean American Students // Creativity Research Journal. 2010. № 22(4). P. 402-407.
9. Ogawa D., Kuehn-Ebert C, DeVito A. A differences in creative thinking between Japanese and American fifth-grade children // Ibaraki University Faculty of Education Bulletin. 2001. № 40. P. 53-59.
10. Kirton M. Kirton Adaptation-Innovation Inventory feedback booklet. Berkhamsted, UK : Occupation Research Center, 2003. P. 32—35.
11. Бондаревская, Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования / Е.В. Бондаревская. – Ростов-на-Дону: Изд-во РосГУ , 2000. —352 с.
12. Karwowski M., Gralewski J., Lebuda I. Creative teaching of creativity teachers: Polish perspective // Thinking Skills and Creativity. 2007. Vol. 2. P. 57-61.
13. Pilar Matud. M., Rodriguez C, Grande J. Gender differences in creative thinking // Personality and Individual Differences. 2007. Vol. 43. P. 137-147.
14. Козлова, Н. В. Личностно-профессиональное становление: психолого-акмеологический подход / Н.В. Козлова. – Томск: Изд-во ТПУ, 2007. – 201 с.